



JAHON VA MILLIY ADABIYOTSHUNOSLIKDA AYOL OBRAZINING UMUMIY TENDENSIYALARI

Kamola Egamberdiyeva,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Namangan davlat universiteti doktoranti, dotsent v.b.

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
Qabul qilindi: 9-fevral 2026-yil Tasdiqlandi: 11-fevral 2026-yil Jurnal soni: 17-B Maqola raqami: 15 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v17i.1444 KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS	Mazkur maqolada jahon va milliy adabiyotshunoslikda ayol obrazining shakllanishi, taraqqiyoti va badiiy talqinidagi umumiy tendensiyalar yoritiladi. Ayol siymosining hikoya janrida aks etishi, uning ruhiy olami, ichki kechinmalari, ijtimoiy maqomi hamda davr bilan bog'liq taqdiriy o'zgarishlari badiiy-estetik jarayon doirasida tahlil etiladi. Jahon adabiyotida ayol obrazi ko'pincha insoniyatning ma'naviy qiyofasi, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar va tarixiy sharoitlar bilan chambarchas bog'liq holda tasvirlangan bo'lsa, o'zbek hikoyachiligida u milliy mentalitet, an'ana va qadriyatlar negizida talqin qilinadi. Maqolada ayol obrazining romantik, realizm va modernistik talqinlari, shuningdek, mustaqillik davri hikoyachiligida uning ruhiy-falsafiy mazmun kasb etishi masalalari ochib beriladi. Ayol qismati orqali davr muammolari, insoniy iztiroblar, ichki ziddiyatlar va ma'naviy izlanishlar ifodalangani ko'rsatib o'tiladi. Hikoya janrining o'ziga xos xususiyatlari – syujet va xarakter birligi, ruhiy tahlil, ramziy tasvir vositalari orqali ayol obrazining estetik qimmatini yuksalishi asoslab beriladi. Shuningdek, jadid davri hikoyachiligidan boshlab zamonaviy adabiyotgacha bo'lgan jarayonda ayol siymosining badiiy talqini evolyutsion jihatdan ko'rib chiqiladi. Mustaqillik davrida ijod erkinligi natijasida ayol ruhiyati yanada chuqurroq va individual yo'sinda tasvirlana boshlagani, uning ichki dunyosi va falsafiy mushohadalari hikoya markaziga aylangani ta'kidlanadi. Natijada ayol obrazi nafaqat syujetni harakatga keltiruvchi unsur, balki butun badiiy g'oyani mujassamlashtiruvchi estetik markaz sifatida namoyon bo'lishi yoritiladi.

Kirish. Jahon va o'zbek adabiyotida turlicha qahramonlar mavjud, adibalar o'z hikoyalarda ayollar olamini inson hayoti bilan bog'lab, ular orqali chuqur falsafiy fikrlarini ifoda etganlar va ularni tasvirlashda nihoyatda nozik badiiy did va ramziylikka tayanib boradilar. Shuningdek, asosan, ular ayol tabiatidan tashqari uning ruhiyati, ichki olami, ijtimoiy va falsafiy g'oyalarni hamda davr muammolarini aks ettirishda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Hikoyanavislar odatda o'z hikoyasida ayol tabiatidagi o'ziga xosliklardan xususan, ayol borlig'i, erkaklarda ucharamaydigan xarakteri, ruhiy olami va taqdir bitigidagi evrilishi tavrilaridan o'rinli foydalanadi. Bu tasvirlar orqali har bir davrlarda ayollarning dardini yoki holatlarini ifodalab berishi osonroq kechgan. Ayrim hikoyanavislar ayol taqdiridan ta'sirlanib, o'z hikoyalarda ayol ruhiyatini ochib beruvchi tasvirlardan foydalanishgan.

Adabiyotlar tahlili

Jahon va milliy adabiyotshunoslikda ayol obrazini o'rganish masalasi ko'plab ilmiy manbalarda turli nazariy yondashuvlar asosida talqin etilgan. Hikoya janrining badiiy tabiati, unda xarakter va voqea birligi masalalari haqida fikr yuritgan adabiyotshunoslar ayol obrazining ham aynan shu mezonlar asosida shakllanishini ta'kidlaydilar. Xususan, X. Do'stmuhammad hikoyalarda hayot va xayol uyg'unligi, badiiy haqiqatning yaratilishi jarayonida qahramon ruhiyatining yetakchi o'rin tutishini qayd etadi¹. Bu qarash ayol obrazining ham ruhiy-falsafiy qatlam orqali ochilishini asoslashda muhim metodologik tayanch vazifasini bajaradi.

H. Umirov badiiy ijod asoslari haqida so'z yuritir ekan, hikoya janrida xarakter va syujet mutanosibligi, detal va epizodlarning qahramon ruhiyati bilan uyg'unligi zarurligini alohida ko'rsatadi². Bu fikrlar ayol obrazini tahlil qilishda uning ichki kechinmalari va xarakter mantiqini ochib berish asosiy mezonlardan biri ekanini tasdiqlaydi.

Jahon adabiyotida ayol obrazining ijtimoiy-estetik talqini masalasi ham alohida o'rganilgan. N.Muhammedovaning Margaret Drabbl ijodiga bag'ishlangan tadqiqotida ayol siymosining jamiyat va shaxs o'rtasidagi murakkab munosabatlarni aks ettiruvchi ko'p qirrali obraz sifatida namoyon bo'lishi asoslab beriladi³. Bu hol jahon adabiyotida ayol obrazining individual ruhiy kechinmalar bilan bir qatorda ijtimoiy muhit mahsuli sifatida talqin qilinishini ko'rsatadi.

Zamonaviy o'zbek hikoyachiligida ayol ruhiyatining badiiy talqini masalasi Z. Qurolboy qizi hikoyalari misolida yaqqol ko'zga tashlanadi. Adibaning "O'lim hech narsa emas" to'plamidagi hikoyalarda ayol obrazlari ichki iztirob, yolg'izlik va ma'naviy izlanishlar bilan uyg'un

holda tasvirlanadi⁴. Bu esa mustaqillik davri hikoyachiligida ayol siymosining ruhiy-falsafiy mazmun kasb etganini ko'rsatadi.

O'.Hoshimovning "O'zbeklar" asarida ham milliy xarakter va ma'naviy qadriyatlar tizimida ayolning o'rni, uning oilaviy va ijtimoiy mas'uliyati badiiy ifodasini topgan⁵. Asarda ayol obrazi milliy mentalitet va tarixiy xotira bilan bog'liq holda talqin etiladi.

O'zbek hikoyachiligining shakllanish bosqichlarini kuzatishda Muhammad Avfiyning "Javomi" ul-hikoyot va lavomi" ul-rivoyot" asari muhim manbalardan biri sanaladi⁶. Undagi hikoyatlar hali mukammal janr talablari asosida yaratilmagan bo'lsa-da, qahramon tasvirining dastlabki unsurlarini o'zida mujassam etgan. Poshshoxo'janing "Mifto'ul-adl" va "Gulzor" asarlari ham hikoya janrining keyingi bosqichdagi taraqqiyotini aks ettiradi⁷.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda adabiyotshunoslikning qiyosiy-tipologik, struktur-semantik, poetik tahlil metodlari asosiy yondashuv sifatida qo'llanadi. Qiyosiy-tipologik tahlil orqali zamonaviy o'zbek hikoyachiligida ayol obrazining talqini qiyoslanadi, turli ayol hikoyanavislarda bu obrazning ruhiy-falsafiy mazmun kasb etishi ochib beriladi. Struktur-semantik metod yordamida ayol tasvirining badiiy vositalar (epitet, metafora, ramz, peyzaj) orqali ifodalanishi, ularning mazmuniy qatlamlari hamda qahramon ruhiyati bilan bog'liqligi tadqiq qilinadi. Poetik tahlil metodologiyasi asosida esa ayol obrazining badiiy-estetik vazifasi, uning qahramon kayfiyati va ruhiy kechinmalarini ifodalashdagi o'rni yoritiladi. Zaruratga ko'ra, intertekstual tahlil yondashuvi ham qo'llanib, ayol tasvirining jahon hikoyachiligidagi o'xshash talqinlari bilan qiyosiy o'rganilishi mumkin.

Metodologik yondashuvlar uyg'unligi ayol obrazining zamonaviy o'zbek hikoyachiligidagi o'rni, uning qahramon ruhiy olamidagi badiiy ifodasini yanada mukammal tahlil qilish imkonini beradi.

Natijalar

Jahon va o'zbek hikoyachiligida ayollar tasviri, xususan, ayol qismati azaldan badiiy obraz yaratish, ruhiy holatni ifodalash va falsafiy mushohadalarni ifodalashda muhim vosita bo'lib kelgan. Zamonaviy adabiyotda ayol ko'pincha hayotning muayyan bosqichi, insonning pirovard yo'li, vaqtning o'tkinchiligi ramzi sifatida talqin qilingan. ijodkorlarning hikoyalarda ayol obrazlari ruhiy kechinmalar, qismatning bitigi va hayot falsafasi bilan uyg'un holda yoritiladi.

XXI asr o'zbek va jahon hikoyachiligida ayol obraziga murojaat qilish an'anasi davom ettirildi. Ayol adibalar ijodida ayol ruhiyati,

¹ Dўstmuhammad X. Ҳикояларда ҳаёт ва ҳаёл ҳақиқати. "Шарқ юлдузи" ж., № 4, 2011. 142-бет.

² Умиров Х. Адабий ижод асослари. –Самарқанд: СамДУ наشري, 2019. – Б. 83.

³ Мухаммедова Н. Маргарет Дреббл асарларида Аёл образи ва унинг ижтимоий-эстетик талқини: Филол. фан. б.ча ф-фа д-ри. дисс. автореф. – Тошкент: 2019. – Б. 50.

⁴ Қуролбой қизи З. Ўлим ҳеч нарса эмас. Ҳикоялар. – Т.: Янги аср авлоди, 2011. – 297-305-бетлар.

⁵ Hoshimov O'. O'zbeklar. – Toshkent: 2019. – 231-bet.

⁶ Muhammad Avfiy. Nodir hikoyalar. – T.: ASN, 1977.

⁷ Poshshoxo'ja. Mifto'ul-adl. Gulzor. – T.: BAN, 1962.

kechinalari mavzusi muallifning o'z davridan kelib chiqqan ruhiy iztiroblari, tashvishlari va umidlarini ifodalashga xizmat qildi. Ayniqsa, Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalarida ayol obrazlari ruhiy tushkunlik, armon va ichki iztiroblar bilan bog'lanadi.

Mustaqillik davri hikoyalarida esa ayol tasviri qahramonning falsafiy mushohadalari, ruhiy o'zgarishlari va shaxsiy kechinmalarini ifodalashda yangicha badiiy mazmun kasb etdi. Tillaniso, Nodirabegim Ibroximova, Raxshona Axmedova kabi hikoyanavislarning hikoyalarida ayol qismati va ruhiyatining badiiy talqini insonning ichki dunyosi, ijtimoiy-milliy ruhiy kechinmalari bilan uyg'unlashadi. Adabiyotlarda ayol tasvirining ko'p qirraligi, uni ruhiyati bilan bog'lash o'zbek hikoyachiligining asosiy estetik xususiyatlaridan biri sifatida tadqiqotchilar tomonidan qayd etilgan. Bunda ayol qismati orqali uning ruhiy olami, falsafiy qarashlari, hayotiy izlanishlari badiiy obraz darajasiga ko'tarilganini kuzatish mumkin.

O'tgan asrning 90 yillaridan e'tiboran o'zbek xalqi o'z tarixining yangi bosqichiga o'tdi. Va millat hayotining estetik ifodasi o'laroq mustaqillik adabiyoti deb atalmish badiiy hodisa yuzaga keldi. Mustaqillik davri zamonaviy o'zbek hikoyanavisligi ko'p asrlik milliy adabiyotning mantiqiy davomidir. Mustaqillik davri zamonaviy o'zbek hikoyachiligi bir qator o'ziga xos belgilarga ega bo'lgan badiiy-estetik hodisadir. Zamonaviy o'zbek hikoyachiligi tubdan o'zgargan milliy ongning, tamomila yangilanayotgan estetik tafakkurning mahsulidir. Bu davrida olamning mavjudlik yo'sinini turlicha izohlash imkoniyati paydo bo'ldi. Bu hol milliy adabiyotimizning ifoda imkoniyatlarini kengaytirdi. Ilmiy-estetik qarashlar xilma-xilligini yuzaga chiqatira boshladi.

Mustaqil o'zbek davlati badiiy adabiyotni sho'ro zamonida bo'lgani kabi o'z monopoliyasiga aylantirishga urinmadi. Shu bois ijod erkinligiga obyektiv sharoit yaratildi. Adabiyot ijodkorining ko'ngil ishiga aylandi va aylanmoqda.

Bugun badiiy ijod bilan shug'ullanayotgan adibalar ayol sifatida ham, ijodkor sifatida ham tamomila o'ziga xos, xilma-xil adibalardir. Istiqloldan keyingi davrda haqiqiy adabiyot o'z ko'ngliga qarshi bormaydigan, uning royishlariga Zug'um o'tkazmaydigan adibalar tomonidan yaratilayotganligi quvonarli. Zamonaviy o'zbek hikoyachiligi mavzusi dolzarblik, hozirjavoblik, zamonaviylik singari sirtqi belgilardan baland turishga va lahzalik holatlarning mangulikka suratlanishiga yo'naltirilmoqda. Shu yo'l bilan hikoya hayotdir. Endilikda zamonaviy o'zbek hikoyalari bilan tanishish uchun kitobxonning qulog'i va ko'ziga emas, tafakkuri va tuyg'ulari ham bir qadar zo'riqishi, hikoyadan zavq olish, lazzat tuyish uchun mehnat qilishi lozim bo'lib qoldi. Darhaqiqat, o'zbek adabiyotida hikoya janri bugungi darajasiga yetgunga qadar uzoq hamda murakkab yo'lni bosib o'tdi. Ammo bu yo'lni sharafli va muntazam rivojlangan deyishga kishi biroz istihola qiladi. Negaki, uning rivojlanishi ravon va uzluksiz davom etmadi. Hikoya tarixiga nazar tashlansa, ko'plab o'ydin-chuqurlar, uzilish va jarliklar mavjudligini ko'rish mumkin. Masalan, XII asrda yashagan adib Muhammad Avfiyning "Javomi ul-hikoyot va lavomi ul-rivoyot" ("Hikoyatlar majmuasi va rivoyatlar nuri") [6: 65] nomli kitobidan to Poshshoxo'janing "Miftoh ul-adl" hamda "Gulzor" [7:89] nomli hikoyalar to'plami dunyoga kelgunga qadar oradan to'rt asr o'tganligining o'zi uning qiyinchilik bilan shakllanganligini ko'rsatadi. Yana shuni ham borki, bu adiblarning asarlari garchi hikoyalar deb atalgan bo'lsada, ularda hali janr uchun zarur usurlarning ko'pi yyetishmas, keng epik tasvirdan, o'ziga xos obrazlar tizimi va eng muhimi, xarakterdan mahrum edi. Bu davr hikoyalarida, asosan, ma'lum va mashhur rivoyatlar, afsonalar, tarixiy voqealar qayta bayon qilinib, qissadan hissa chiqarilar, badiiylkdan ko'ra sharhlash ustuvorlik qilardi. Umuman, hikoyaning dastlabki namunalari ibtidoiy ko'rinishda bo'lib, bunday manzara yana qariyb uch asr davom etdi. Yillar o'tgan sari hikoya qadam-baqadam yo'l yurib, zarrama-zarra tajriba to'play boshladi. Garchi mukammal namunalari yaratilmagan bo'lsada, hikoyalarda rang-barang hayotni va uning asosini tashkil etgan murakkab qahramonni turli rakurslar orqali tekshirish hamda aks ettirish yo'lida muayyan izlanishlar olib borildi. Yutuq va kamchiliklar, chekinishu, deysinshlardan iborat bu izlanish XX asr boshlariga kelib o'zining ilk samaralarini ko'rsata boshladi. Jadid adabiyotining namoyandalari Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Hamza Hakimzoda, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lponlar bu janrning yangilanishiga munosib hissa qo'shdilar. Ularning sa'yi-harakati bilan hikoyaga ilgari ko'rilmagan syujet birligiga asoslangan yaxlit voqelik, shu voqelikni ro'yobga chiqarishda muhim rol o'ynaydigan qahramon (garchi ular xarakter darajasiga ko'tarilmagan bo'lsada), voqea rivojiga turtki beruvchi konflikt (ayniqsa, ma'rifat va jaholat o'rtasidagi kurash misolida) kabi zarur usullar kirib keldi. Bular hikoyaning janr sifatida

mukammallashuvida dastlabki mezonlar rolini o'ynadi. Shunday qilib, hikoya janrining tamal toshi jadid yozuvchilarimiz tomonidan qo'yildi deb xulosa chiqarishga asoslar yetarli bo'ladi. Hikoyaning mustaqil janr sifatida dunyoga kelishi esa XX asrning birinchi choragida o'zbek adabiyotini yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tardi. Jadid adiblarning an'analari keyinroq G'afur G'ulom, Oybek, Oydin, Abdulla Qahhor kabi ijodkorlar tomonidan izchil davom ettirildi. Garchi tafakkuridagi sotsialistik dunyoqarashning ustunligi tufayli bu adiblarning asarlari ijtimoiy-siyosiy yukning og'irligidan zarar ko'rganligi sezilsa ham, har holda bu davr hikoyalarida xarakter yarq etib ko'zga tashlana boshladi. Binobarin, hikoya deganda birinchi navbatda asarda bayon qilingan voqealar tizimi emas, balki unda yaratilgan xarakter ko'z oldimizga keladi. Chunonchi, "Hiylayi shar'iy" deyishimiz bilan Mulla Dilkash, "O'g'ri" desak, Qobil bobo, "Bemor" deganda Sotiboldi (va hokazo, bu ro'yxatni uzoq davom ettirish mumkin) larni eslaymiz. Shundan keyingina ularning boshidan o'tgan voqea-hodisalar yodimizga keladi. Bu shuni isbotlaydiki, hikoyada bayon qilingan voqelik xarakter orqali rivojlanadi. To'g'rirog'i, asar syujetini xarakter harakatga keltiradi. Shuni hisobga olgan holda hikoya janrining quyidagi uchta asosiy shartini ko'rsatish maqsadga muvofiqdir:

1. Hikoya syujetiga xarakter asos bo'lishi kerak;
2. Unda bayon qilinayotgan voqelik xarakter orqali jonli va ta'sirchan ifoda etilishi shart;
3. Asarda syujet, xarakter, voqea birligini taminlash yozuvchining badiiy tasvirlash mahoratiga bog'liq. Voqelikning xarakter atrofiga jipslashtirilishi, uning izchil va muntazam rivojlanishi, xarakter bilan voqelikning o'zaro birligi hamda mutanosibligini saqlay bilish ana shu mahoratning qay darajada ekanligini ko'rsatuvchi muhim mezonlar hisoblanadi.

Muhokama

Mabodo, yozuvchi xarakter tasviridan ko'ra voqeani bayon qilishga berilib ketib, uning qiziqarli chiqishi uchun turli epizodlarni birin-ketin qalashtirib tashlayversa, bunday asarda voqeanavislik ustun kelib, xarakter uning soyasida qolib ketadi. Nuqul voqealar uyumidan iborat bo'lgan hikoya esa o'quvchining esida qolmaydi. Chunki hikoyada voqealarni birlashtiruvchi, ularni ro'yobga chiqaruvchi muhim omil shubhasiz, xarakter. Aslida "Xarakter bilan voqealar orasidagi birlikni ta'min etish badiiy ijodning (eng) murakkab masalalaridan biri" sanaladi. Bu murakkab ishning uddasidan chiqish uchun esa san'atkordan har bir epizod, har bir detal, har bir portret va boshqa badiiy tasvir vositalarini ifodalalayotgan xarakter taqdiri, ruhiyati, xatti-harakati bilan mutanosib bo'lishi ustida alohida bosh qotirishi, ularni bir-biri bilan chambarchas bog'lay olishi va syujetning uzviy bo'lagini tashkil etishini taminlay olishi talab qilinadi. Zero, hikoyada voqelik bilan xarakter mantiqi to'la mutanosib bo'lishi janrning qat'iy talablaridandir. Agar ularning biri ustun, boshqasi zaifroq ifodalansa, badiiylk mezoniga putur yetadi.

Jahon va milliy adabiyotshunoslikda ayol obrazining talqini tarixiy taraqqiyot jarayoni bilan uzviy bog'liq holda shakllangan. Dastlabki badiiy manbalarda ayol ko'proq ideal timsol – sadoqat, poklik, fidoyilik ramzi sifatida gavdalanirilgan bo'lsa, keyingi davrlarda uning ichki dunyosi, ruhiy iztiroblari va shaxsiy tanlovi markaziy o'ringa chiqa boshladi. Antik va o'rta asr adabiyotida ayol obrazi ko'pincha erkak qahramonning taqdirini belgilovchi unsur sifatida tasvirlangan bo'lsa, realizm va modernizm davriga kelib u mustaqil ruhiy olamga ega individual shaxs sifatida talqin qilindi.

XIX–XX asr jahon adabiyotida ayol obrazining psixologik chuqurlashuvi kuzatiladi. Ruhiy tahlil, ichki monolog, ong oqimi kabi badiiy usullar ayol kechinmalarini yanada teran ochib berish imkonini yaratdi. Bu jarayonda ayol nafaqat ijtimoiy muammolar ifodachisi, balki insoniy mavjudlikning murakkab falsafiy savollarini o'zida mujassamlashtirgan timsolga aylandi. Feministik adabiy tanqidning shakllanishi esa ayol obrazini baholash mezonlarini tubdan yangiladi: endilikda ayol qahramon erkak markazli tasavvurlar doirasida emas, balki o'z subyektiv tajribasi va nutqi orqali talqin etila boshlandi.

O'zbek adabiyotida ham ayol obrazining evolyutsiyasi jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liqdir. Jadid davrida ayol ko'proq ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan bog'liq holda, jaholatga qarshi kurashuvchi yoki uning qurboni sifatida tasvirlangan. Sho'ro davrida esa ayol obrazi ijtimoiy tenglik, mehnatsevarlik va fidoyilik timsoli sifatida talqin qilindi. Biroq bu davrda ham ayrim adiblar ayol ruhiyatining nozik qatlamlarini ochishga intildilar.

Mustaqillik davri o'zbek hikoyachiligida ayol siymosi yanada murakkablashdi va individuallashti. Endilikda u nafaqat jamiyatdagi o'zni bilan, balki o'z ichki iztiroblari, yolg'izlik hissi, hayot ma'nosini izlash jarayoni bilan namoyon bo'lmoqda. Ayol obrazi orqali milliy mentalitet, oilaviy munosabatlar, an'ana va zamonaviylik o'rtasidagi ziddiyatlar yoritiladi. Ruhiy kechinmalar tasviri hikoya syujetining asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylanib, xarakter va voqea birligi yanada mustahkamlanadi.

Zamonaviy adabiyotshunoslikda ayol obrazini o'rganishda gender yondashuvi, psixanalitik tahlil, qiyosiy-tipologik metodlar keng qo'llanilmoqda. Bu yondashuvlar ayol siymosining faqat badiiy obraz emas, balki ijtimoiy-madaniy fenomen sifatidagi ahamiyatini ham ochib beradi. Ayol qismati orqali davrning ma'naviy-axloqiy mezonlari, jamiyatdagi qadriyatlar tizimi va insoniy munosabatlar tabiati namoyon bo'ladi.

Shu tariqa, jahon va milliy adabiyotshunoslikda ayol obrazining umumiy tendensiyalari uning ideal timsoldan murakkab ruhiy individual shaxs darajasiga ko'tarilishi, tashqi voqelikdan ichki olam tasviriga o'tish jarayoni, shuningdek, badiiy-estetik markaz sifatida shakllanishida namoyon bo'ladi. Ayol siymosi bugungi hikoyachilikda inson qalbining nozik qatlamlarini ochib beruvchi, davr ruhini aks ettiruvchi va badiiy tafakkurning teranligini namoyish etuvchi muhim estetik kategoriya sifatida qaralmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Дўстмуҳаммад Х. Ҳикояларда ҳаёт ва ҳаёл ҳақиқати. "Шарқ юлдузи" ж., № 4, 2011. 142-бет.
2. Умиров Ҳ. Адабий ижод асослари. –Самарқанд: СамДУ нашри, 2019. – Б. 83.
3. Мухаммедова Н. Маргарет Дреббл асарларида Аёл образи ва унинг ижтимоий-эстетик талқини: Филол. фан. б-ча ф-

Xulosa

Jahon va milliy adabiyotshunoslik tajribasi shuni ko'rsatadiki, ayol obrazi badiiy tafakkur taraqqiyoti jarayonida izchil ravishda murakkablashib, mazmunan boyib borgan estetik hodisadir. Dastlab ideal timsol, sadoqat va fidoyilik ramzi sifatida talqin qilingan ayol siymosi keyingi davrlarda mustaqil ruhiy olamga ega, ichki ziddiyatlari va individual qarashlari bilan ajralib turuvchi shaxs darajasiga ko'tarildi. Bu jarayon jamiyatdagi ijtimoiy, madaniy va ma'naviy o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liq holda kechdi.

Hikoya janrida ayol obrazi ayniqsa teran ruhiy tahlil imkoniyatlari orqali namoyon bo'ladi. Syujet va xarakter birligi, ichki monolog, ramziy detallar hamda psixologik tasvir vositalari ayol ruhiyatini ochishda muhim badiiy vosita vazifasini bajaradi. Natijada ayol siymosi voqealar rivojini harakatga keltiruvchi unsur bo'lish bilan birga, asarning g'oyaviy-estetik markaziga aylanadi.

O'zbek hikoyachiligida ayol obrazi milliy mentalitet, an'ana va zamonaviylik o'rtasidagi munosabatlarni ifodalovchi muhim timsol sifatida shakllandi. Mustaqillik davrida ijod erkinligining kengayishi ayolning ichki dunyosi, ruhiy iztiroblari va shaxsiy tanlovini yanada chuqurroq yoritish imkonini berdi. Shu bois zamonaviy hikoyalarda ayol siymosi insoniy qismat, ma'naviy izlanish va davr muammolarini mujassamlashtirgan murakkab estetik obraz sifatida namoyon bo'lmoqda.

фа д-ри. дисс автореф. – Тошкент: 2019. – Б. 50.

4. Қўролбой қизи З. Ўлим ҳеч нарса эмас. Ҳикоялар. – Т.: Янги аср авлоди, 2011. – 297-305-бетлар.
5. Hoshimov O'. O'zbeklar. – Toshkent: 2019. – 231-bet.
6. Muhammad Avfiy. Nodir hikoyalar. – T.: ASN, 1977.
7. Poshshoxo'ja. Miftoh ul-adl. Gulzor. – T.: BAN, 1962.